

**BOSHLANG‘ICH SINFLARDA INGLIZ TILI DARSLARIDA  
O‘QUVCHILARNING KOMMUNIKATIV SAMARADORLIGINI  
RIVOJLANTIRISH**

**Joldasbaeva Ayzada Baxram qizi**

*Nukus state pedagogical institute Master's degree*

**Annotatsiya.** *Mazkur maqolada boshlang‘ich sinflarda ingliz tili darslarida o‘quvchilarning kommunikativ samaradorligini rivojlantirish masalalari yoritilgan. Unda kichik yoshdagi o‘quvchilarda og‘zaki va yozma nutq ko‘nikmalarini shakllantirish, ularni muloqotga jalb etishning zamonaviy pedagogik usullari hamda interfaol meto dlardan foydalanish yo‘llari tahlil qilinadi. Shuningdek, o‘yin texnologiyalari, kommunikativ yondashuv va innovatsion metodlarning o‘quvchilarning til o‘rganishga bo‘lgan qiziqishini oshirishdagi ahamiyati asoslab beriladi. Tadqiqot natijalari boshlang‘ich ta‘lim bosqichida ingliz tilini samarali o‘qitish va o‘quvchilarning kommunikativ kompetensiyasini rivojlantirishga xizmat qiladi.*

**Kalit so‘zlar:** *boshlang‘ich ta‘lim, ingliz tili, kommunikativ samaradorlik, kommunikativ kompetensiya, interfaol metodlar, o‘yin texnologiyalari, nutq ko‘nikmalari, til o‘qitish, innovatsion yondashuv, muloqot.*

**DEVELOPING STUDENTS' COMMUNICATIVE EFFICIENCY IN ENGLISH  
LESSONS IN PRIMARY GRADES**

**Annotation.** *This article discusses the issues of developing students' communicative efficiency in English lessons in primary grades. It analyzes modern pedagogical methods for forming oral and written speech skills in younger students, involving them in communication, and ways to use interactive methods. It also substantiates the importance of game technologies, communicative approaches, and innovative methods in increasing students' interest in language learning. The results of the study serve to effectively teach English at the primary education stage and develop students' communicative competence.*

**Keywords:** *primary education, English, communicative efficiency, communicative competence, interactive methods, game technologies, speech skills, language teaching, innovative approach, communication.*

**Kirish.** Bugungi globallashuv jarayonida chet tillarini, xususan ingliz tilini o‘rganish muhim ahamiyat kasb etmoqda. Ayniqsa, boshlang‘ich ta‘lim bosqichida til o‘rgatish

o‘quvchilarning keyingi bilim olish jarayonida mustahkam poydevor yaratadi. Shu boisdan ham ingliz tili darslarida nafaqat grammatik bilimlarni berish, balki o‘quvchilarning erkin muloqot qilish ko‘nikmalarini shakllantirish dolzarb vazifa hisoblanadi.

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilari psixologik xususiyatlariga ko‘ra faol, qiziquvchan va o‘yin orqali bilimni tez o‘zlashtiradigan yosh toifasiga kiradi. Shu sababli ingliz tilini o‘qitishda kommunikativ yondashuv, interfaol metodlar hamda zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalanish samarali natijalar beradi. O‘quvchilarni dars jarayonida faol ishtirok etishga jalb qilish, ularni erkin fikr bildirishga undash va real hayotga yaqin vaziyatlarda muloqotga kirishishini ta‘minlash muhimdir.[1]

Mazkur maqolaning asosiy maqsadi — boshlang‘ich sinflarda ingliz tili darslarida o‘quvchilarning kommunikativ samaradorligini rivojlantirishning samarali usullari va vositalarini tahlil qilishdan iborat.

**Adabiyotlar tahlili va metodologiyasi.** Ta‘lim jarayonining samaradorligini oshirishda integrativ yondashuvning ilmiy-metodik asoslari bir qator olimlar tomonidan chuqur o‘rganilgan. Jumladan, Gulyamova M.X., Axmedova N.M., Abdullayeva N.M., Mavlonova R.A., Rahmonqulova N.H., Maksimova V.N., Chapayev N.K. kabi tadqiqotchilarning ishlarida ushbu masalaning nazariy va amaliy jihatlari yoritib berilgan.

Shuningdek, K.P. Murthy va M.V. Ragha Ram tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda ta‘limda integrativ yondashuvning afzalliklari keng tahlil qilingan. Yuqorida nomlari keltirilgan olimlarning ilmiy izlanishlari va tadqiqot natijalari mazkur muammoni hal etishda muhim ilmiy-amaliy ahamiyatga ega hisoblanadi.

Ta‘limdagi integratsiya bir necha yo‘nalishda talqin etilishi mumkin. Birinchidan, u o‘quvchilarda borliq haqida yaxlit tasavvur shakllantirishga xizmat qiluvchi ta‘lim maqsadi sifatida namoyon bo‘ladi. Ikkinchidan, turli fanlar o‘rtasidagi bilimlarni uyg‘unlashtirish uchun umumiy asos yaratishda vosita vazifasini bajaradi. Uchinchidan, rivojlantiruvchi ta‘limni amalga oshirishda samarali mexanizm sifatida qo‘llaniladi. To‘rtinchidan esa, u umuminsoniy va milliy tarbiyani shakllantirishda muhim omil hisoblanadi.

Ikki yoki undan ortiq o‘quv fanlari o‘rtasida o‘zaro bog‘liqlikni yo‘lga qo‘yishda ayrim hollarda ulardan biri asosiy tayanch fan sifatida xizmat qiladi. Fanlararo integratsiyani samarali tashkil etishda mavzularning o‘zaro uzviyligi va mantiqiy bog‘liqligi muhim o‘rin tutadi, aynan shu jihatlar integratsiyalashgan darslarning poydevorini tashkil etadi.

Har qanday ko‘nikma va malakalar bosqichma-bosqich, sodda mashqlardan murakkablariga o‘tish orqali shakllantiriladi. Bunda maxsus mashqlar va matnlardan foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi.

Umumiy o‘rta ta‘lim maktablarida dars samaradorligini oshirishda integratsiyalashgan topshiriqlar hamda interfaol metodlardan foydalanish alohida ahamiyatga ega. Xususan,

“Rolli o‘yinlar” (Role plays), “Muammoni top” (Find the problem), “Yo‘naltiruvchi intervyu” (Guided interview), “Mimika va imo-ishora” (Mime and gesture), “Act out”, “TPR” (Total Physical Response), “Tinglang va chizing” (Listen and draw) kabi mashq va metodlar o‘quv jarayonini samarali tashkil etish hamda ta’lim sifatini oshirishga xizmat qiladi.

**Muhokama va natijalar.** Zamonaviy boshlang‘ich ta’lim tizimidagi muhim va ijobiy o‘zgarishlarga turtki bergan asosiy hujjatlardan biri — O‘zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidentining 2012-yil 10-dekabrdagi PQ-1815-sonli “Chet tillarni o‘rganish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qaroridir. Mazkur qaror asosida umumiy o‘rta ta’lim maktablarida, ayniqsa, ingliz tilini o‘qitish jarayoni tubdan yangilandi. Xususan, 1-sinflarda chet tillari o‘yin va og‘zaki nutq shaklida, 2-sinfdan boshlab esa alifbo, o‘qish va grammatika asosida tizimli ravishda o‘rgatila boshlandi. Shu bilan birga, chet tillarini o‘qitishni rivojlantirishga qaratilgan keng ko‘lamli ishlar muvofiqlashtiruvchi kengash tomonidan amalga oshirildi.

Boshlang‘ich sinflarda, ayniqsa, birinchi sinf o‘quvchilariga chet tilini o‘rgatishda ularning yoshiga xos psixologik va fiziologik xususiyatlarni hisobga olish muhim ahamiyatga ega. Shu nuqtai nazardan, o‘yin asosidagi darslar va og‘zaki mashg‘ulotlar kichik yoshdagi o‘quvchilar uchun eng maqbul usul hisoblanadi. O‘yin texnologiyalaridan foydalanish o‘quvchilarning tafakkuri, dunyoqarashi va fikrlash doirasini kengaytiradi. Tadqiqotchilar ta’lim jarayonida o‘yinlardan foydalanish nafaqat o‘rganishni osonlashtirishini, balki fanlarga bo‘lgan qiziqishni oshirish orqali chuqur bilim olishga undashini ta’kidlaydilar.

Shuningdek, ta’lim muassasalarida xorijiy tillar xonalarining zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari bilan jihozlanishi, televizion va radiodasturlar orqali til o‘rgatuvchi materiallarning berib borilishi, xorijiy filmlar va multfilmlarning subtitrlar bilan namoyish etilishi o‘quvchilarning dunyoqarashini kengaytirishga xizmat qilmoqda. Bu esa yoshlarning boshqa xalqlar madaniyati, tarixi va ilmiy yutuqlari bilan yaqindan tanishishiga imkon yaratadi.[2]

Tillararo nazariya asosida qaralganda, ingliz tilini o‘rganish jarayoniga ta’sir etuvchi omillar — o‘quvchining yoshi, psixologik xususiyatlari, ta’lim mazmuni va metodlari hisoblanadi. Ushbu yondashuvga ko‘ra, o‘quvchi mavjud til tajribasiga tayangan holda yangi til tizimini o‘zlashtiradi. Ona tili va boshqa tillar tajribasi ingliz tilini o‘rganishda ijobiy hamda salbiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin. Shu sababli o‘quv dasturlari va darsliklar ishlab chiqilishida interferensiya va transpozitsiya holatlari albatta inobatga olinadi.

Boshlang‘ich sinflarda ingliz tilini o‘qitish pedagogik tamoyillarga asoslanadi. Ular quyidagilarni o‘z ichiga oladi: o‘quvchilarni har tomonlama rivojlantirish, ularni til o‘rganishga rag‘batlantirish, individual xususiyatlarini hisobga olish, bag‘rikenglik va hurmat ruhida tarbiyalash, mustaqil fikrlash uchun sharoit yaratish hamda o‘z bilimlarini amaliyotda

qo‘llash imkonini berish. Ushbu tamoyillar o‘quvchilarning nafaqat bilimini, balki shaxsiy sifatlarini ham rivojlantirishga xizmat qiladi.

Boshlang‘ich ta‘lim bosqichida o‘qish va nutqni rivojlantirish mashg‘ulotlari o‘quvchilarning savodxonligini oshirish bilan birga, ularda Vatanga muhabbat, milliy qadriyatlarga hurmat kabi fazilatlarni shakllantiradi. Shu bilan birga, bu darslar yuqori sinflarda o‘qitiladigan fanlarni o‘zlashtirish uchun mustahkam poydevor yaratadi. Kichik yoshdagi bolalarning diqqatini uzoq vaqt saqlab turish qiyin bo‘lganligi sababli darslar qisqa, qiziqarli va faol metodlar asosida tashkil etilishi lozim.[3]

Ingliz tili darslari o‘quvchilarda o‘qish, yozish, tushunish va tahlil qilish ko‘nikmalarini rivojlantiradi. Matnlar bilan ishlash orqali ularning lug‘at boyligi kengayadi, tanqidiy fikrlash qobiliyati shakllanadi. Shuningdek, ijodiy yozuv mashqlari o‘quvchilarning tasavvurini rivojlantirib, ularni erkin fikr bildirishga undaydi.

Bugungi globallashuv davrida ingliz tilini bilish o‘quvchilar uchun katta imkoniyatlar eshigini ochadi. U oliy ta‘lim olish, xalqaro muloqot qilish va kelajak kasbiy faoliyatda muvaffaqiyatga erishishda muhim vosita hisoblanadi. Tilni o‘zlashtirish jarayonida o‘quvchilarda o‘ziga ishonch ortadi, ular faol va tashabbuskor bo‘lib boradi.

Umuman olganda, boshlang‘ich sinflarda ingliz tilini o‘qitish o‘quvchilarning kelajakdagi ta‘limi va shaxsiy rivoji uchun mustahkam asos yaratadi. Shu bois, dars jarayonini zamonaviy pedagogik texnologiyalar asosida tashkil etish, o‘quvchilarning yosh va individual xususiyatlarini hisobga olish, ularning qiziqishlarini rag‘batlantirish muhim ahamiyat kasb etadi.[4]

Bugungi kunda dunyo miqyosida ingliz tilini o‘qitish metodikasi turli xil yondashuvlar asosida shakllangan bo‘lib, har bir metod o‘quvchilar va talabalar uchun til o‘rganish jarayonini yengillashtirish va samaradorligini oshirishga xizmat qiladi. Mamlakatimizda ta‘lim tizimida amalga oshirilayotgan keng ko‘lamli islohotlar ham aynan yoshlarning ingliz tili va boshqa xorijiy tillarni o‘zlashtirishiga qulay sharoit yaratishga qaratilgan.

O‘zbekiston Respublikasining “Ta‘lim to‘g‘risida”gi Qonuni hamda Vazirlar Mahkamasining “Xorijiy tillarni o‘rganishni ommalashtirishni samarali tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida” va “Ta‘lim muassasalarida chet tillarini o‘qitish sifatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarorlari chet tillarini o‘qitish tizimini rivojlantirishda muhim huquqiy asos bo‘lib xizmat qilmoqda. Ushbu hujjatlar asosida ta‘lim jarayonini modernizatsiya qilish, sifatni oshirish va zamonaviy yondashuvlarni joriy etish ustuvor vazifalardan biri sifatida belgilangan.

Hozirgi kunda ushbu qarorlarning ijrosini ta‘minlash maqsadida oliy ta‘lim muassasalarida xalqaro hamkorliklar keng yo‘lga qo‘yilgan, xorijiy mutaxassislar dars jarayonlariga jalb

etilmoqda. Bu esa talabalar uchun ingliz tilini o‘rganish imkoniyatlarini kengaytirib, ularning motivatsiyasini oshirishga xizmat qilmoqda.[5]

Talabalarning kommunikativ kompetensiyasini rivojlantirishda CLT (Communicative Language Teaching) — kommunikativ til o‘qitish metodining ahamiyati juda katta. Ushbu yondashuv XX asrning 70-yillarida Angliyada shakllangan bo‘lib, u til o‘qitishda grammatik bilimlar bilan bir qatorda real muloqot ko‘nikmalarini rivojlantirishga qaratilgan. CLT metodining asosiy maqsadi o‘quvchilarda tilni amaliy muloqot vositasi sifatida qo‘llash kompetensiyasini shakllantirishdir.

Mazkur metod G‘arb mamlakatlarida tez rivojlangan bo‘lsa-da, ayrim Osiyo mamlakatlarida uni joriy etish jarayoni nisbatan sekin kechmoqda. Bunga an‘anaviy ta‘lim tizimining ustuvorligi, o‘qituvchi markazli yondashuvning kuchliligi hamda CLT metodiga nisbatan turlicha qarashlar sabab bo‘lmoqda. Shuningdek, uzoq yillar davomida shakllangan “ustoz-shogird” an‘anaviy yondashuvi ham yangi metodlarni qabul qilishda ma‘lum to‘siqlarni yuzaga keltirmoqda.

Shu bilan birga, kommunikativ kompetensiya tushunchasi o‘quvchilarning grammatik, sotsiolingvistik va strategik ko‘nikmalarini o‘z ichiga oladi. O‘qituvchilar ushbu komponentlar haqida yetarli bilimga ega bo‘lishi zarur, chunki ularning to‘g‘ri qo‘llanilishi til o‘rgatish jarayonining samaradorligini belgilaydi. Zamonaviy ta‘lim tizimida CLT metodi ilmiy jihatdan o‘z samaradorligini isbotlagan va keng qo‘llanilayotgan yondashuvlardan biridir.[6]

CLT metodida grammatik kompetensiya til birliklari, sintaktik tuzilmalar va fonologik qoidalarni o‘zlashtirishni o‘z ichiga oladi. Sotsiolingvistik kompetensiya esa tilni ijtimoiy kontekstda to‘g‘ri qo‘llash qobiliyatini rivojlantiradi. Strategik kompetensiya esa muloqot jarayonida yuzaga keladigan qiyinchiliklarni bartaraf etish, fikrni aniq ifodalash va muloqotni davom ettirish ko‘nikmalarini shakllantiradi. Ushbu uch yo‘nalish uyg‘unligi o‘quvchilarning kommunikativ salohiyatini sezilarli darajada oshiradi.

Til o‘qitishdagi ayrim an‘anaviy yondashuvlar, xususan grammatika-tarjima metodi (GTM), ko‘proq shaklga e‘tibor qaratgani sababli, muloqot ko‘nikmalarini yetarli darajada rivojlantira olmaydi. Bu esa tilni amaliy qo‘llashda muammolarni keltirib chiqaradi. Shu bois zamonaviy metodlar, ayniqsa kommunikativ yondashuv, hozirgi ta‘lim jarayonida ustuvor ahamiyat kasb etmoqda.

CLT metodini ta‘lim jarayoniga keng joriy etish talabalar kommunikativ kompetensiyasini rivojlantirishda eng samarali yo‘nalishlardan biridir. Grammatik, sotsiolingvistik va strategik kompetensiyalarni uyg‘un holda shakllantirish orqali o‘quvchilarning til bilish darajasi oshadi. Shu sababli zamonaviy ingliz tili o‘qituvchilari dars jarayonini aynan kommunikativ

yondashuv asosida tashkil etishi bugungi ta’lim tizimining muhim talablaridan biri hisoblanadi.[7]

Tadqiqotimiz doirasida olib borilgan tajriba-sinov ishlari umumiy o’rta ta’lim maktablarining 3–4-sinf o’quvchilarida ingliz tilidan lingvistik kompetensiyani integrativ yondashuv asosida rivojlantirish samaradorligini oshirishga qaratildi.

Tajriba-sinov jarayonining dastlabki bosqichida o’quvchilarning ingliz tili fanidan bilim darajasini aniqlash maqsadida test sinovi tashkil etildi. O’quvchilarga ingliz tilidan 15 ta test topshirig’i berildi. Ushbu testlar ularning mavjud bilim va ko’nikmalarini baholashga mo’ljallangan bo’lib, har bir savol uchun to’rtta javob varianti (A, B, C, D) taqdim etildi. Har bir topshiriqni bajarish uchun 2 daqiqa, jami 15 ta savol uchun esa 30 daqiqa vaqt ajratildi.

Bundan tashqari, test topshiriqlari o’quvchilardan nafaqat nazariy bilimlarni, balki ularni amaliy jihatdan qo’llashni, turli jarayonlarni tasavvur qilish, tahlil etish hamda mavjud ko’nikma va malakalarni ishga solishni talab qildi.

Dastlabki test natijalari tahlili shuni ko’rsatdiki, tajriba va nazorat guruhlaridagi o’quvchilarning ko’rsatkichlari deyarli bir xil darajada bo’lgan (1 -jadval).[8]

**1-jadval. O’quvchilarning ingliz tilida lingvistik kompetensiyasini rivojlanganlik darajasi bo’yicha tajriba-sinovoldi o’zlashtirish ko’rsatkichlari.**

Gu ruh	O’quv chilar soni	1	2	3	4	5	6	7	8	9	10	11	12	13	14	15	Um umi y (%)
Tajr iba gur uhi	32	71 %	70 %	74 %	78 %	90 %	68 %	75 %	61 %	63 %	78 %	53 %	54 %	65 %	53 %	60 %	66.6 %
Naz orat gur uhi	33	68 %	66 %	70 %	71 %	88 %	64 %	69 %	55 %	59 %	73 %	49 %	53 %	64 %	51 %	54 %	64.2 %

Tajriba-sinov jarayonida tanlab olingan nazorat guruhida ingliz tili darslari odatiy, an’anaviy usulda olib borildi. Tajriba guruhida esa dars mashg’ulotlari integrativ yondashuv asosida tashkil etildi. Bo’lim yakunida o’quvchilarning o’zlashtirish darajasini aniqlash maqsadida tanlangan mavzular yuzasidan test sinovi o’tkazildi.

Tajribaning dastlabki bosqichidan farqli ravishda, bu safar o’quvchilarning bilimini yanada aniqroq baholash uchun har bir test topshirig’iga bittadan to’liq to’g’ri javob, bittadan qisman to’g’ri (to’liq bo’lmagan) javob va uchtadan noto’g’ri javob variantlari kiritildi. [9]

O‘tkazilgan test natijalari quyidagi jadvalda (2-jadval) o‘z aksini topgan.

**2-jadval. O‘quvchilarning ingliz tilida lingvistik kompetensiyasini rivojlanganlik darajasi bo‘yicha tajriba-sinov o‘tkazilgandan so‘ng o‘zlashtirish ko‘rsatkichlari.**

Gu ruh	O‘quv chilar soni	1	2	3	4	5	6	7	8	9	10	11	12	13	14	15	Um umi y (%)
Tajr iba gur uhi	32	79 %	80 %	67 %	87 %	92 %	68 %	72 %	66 %	67 %	78 %	68 %	66 %	68 %	67 %	69 %	71.7 %
Naz orat gur uhi	33	71 %	70 %	65 %	79 %	81 %	61 %	68 %	54 %	59 %	73 %	53 %	60 %	62 %	56 %	57 %	65.8 %

Yuqorida keltirilgan jadval natijalari shuni ko‘rsatadiki, dastlabki test sinovida tajriba guruhining umumiy ko‘rsatkichi 66,6 % ni tashkil etgan. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilariga ingliz tili darslari integrativ yondashuv asosida olib borilgandan so‘ng, tajriba-sinov ishlari yakunida o‘tkazilgan test natijalari 71,7 % ga yetgan.

Nazorat guruhida esa darslar o‘zgartirishsiz, an’anaviy tarzda davom ettirildi. Yakuniy test sinovlari natijasida ushbu guruhda ko‘rsatkich 65,8 % ni tashkil etdi. Bu esa nazorat guruhida sezilarli o‘shish kuzatilmaganligini anglatadi. [10]

Tajriba-sinov ishlarining yakuniy bosqichida integrativ yondashuv asosida o‘qitishning bir qator ijobiy jihatlari aniqlab olindi. Jumladan, o‘quvchilarning mustaqil ishlash ko‘nikmalari shakllandi hamda ularning ijodiy salohiyatini rivojlantirish uchun qulay sharoit yaratildi. Shuningdek, ingliz tilini o‘rganish jarayonida ilgari mavjud bo‘lgan bilim bo‘shliqlari bartaraf etilib, o‘quvchilarning bilim darajasi yanada mustahkamlandi, natijada darslarning samaradorligi oshdi.

Bundan tashqari, integrativ yondashuv asosida tashkil etilgan darslar va mashg‘ulotlar o‘quvchilarning fanga bo‘lgan qiziqishi va o‘qishga motivatsiyasini sezilarli darajada kuchaytirgani kuzatildi.

Shu bois, tajriba guruhlarida sifat ko‘rsatkichlarining oshishiga asosiy omil sifatida ingliz tili darslarining integrativ yondashuv asosida tashkil etilganini e’tirof etish mumkin. [11]

**Xulosa.** Tadqiqot natijalari quyidagi xulosalarga kelish imkonini berdi:

1. Umumiy o‘rta ta’lim maktablarining 3–4-sinflarida ingliz tilini o‘qitish jarayonida lingvistik kompetensiyani rivojlantirishga oid o‘quv dasturlari, mamlakatimizda amal

qilayotgan kommunikativ va kompetensiyaviy yondashuvni belgilovchi normativ -huquqiy hujjatlar hamda chet tillarni o‘qitish metodikasiga doir ilmiy-nazariy qarashlar ushbu tadqiqotning metodologik asosini tashkil etadi.

2. 3–4-sinf o‘quvchilarida ingliz tili bo‘yicha lingvistik kompetensiyani shakllantirishda ta’lim samaradorligini oshirish, dars sifatini yaxshilash hamda o‘quvchilarning bilish faolligini rivojlantirishda integrativ yondashuvdan keng va tizimli foydalanish zarurligi aniqlandi.

3. Ingliz tili darslarida boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining lingvistik kompetensiyasini rivojlantirish uchun integratsiyalashgan mashq va topshiriqlar tizimini qo‘llash maqsadga muvofiq ekanligi tasdiqlandi. Bunday yondashuv o‘quvchilarning autentik materiallar bilan ishlashi orqali ularning bilim va ko‘nikmalarini mustahkamlash hamda ijobiy natijalarga erishish imkonini beradi.

#### Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Axmedova N.M. *Integrativ yondashuv asosida bo‘lajak o‘qituvchilarning kasbiy tayyorgarligini takomillashtirish*. PhD dissertatsiyasi. – Toshkent, 2020.

2. Gulyamova M.X. *Ingliz tili o‘qitishda talabalarning kommunikativ kompetensiyasini rivojlantirishga integrativ yondashuv*. Pedagogika fanlari bo‘yicha nomzodlik dissertatsiyasi avtoreferati. – Toshkent, 2019. – 45-b.

3. Mavlonova R.A., Rahmonqulova N.H. *Boshlang‘ich ta’limning integratsiyalashgan pedagogikasi*. O‘quv qo‘llanma. – Toshkent: ILM ZIYO, 2009.

4. Maksimova V.N. *Интеграция в системе образования*. – Sankt-Peterburg: A.I. Gertsen nomidagi davlat pedagogika universiteti nashriyoti, 2000.

5. Pinter A. *Children Learning Second Languages: Research and Practice in Applied Linguistics*. – UK: Palgrave Macmillan, 2011. – 308 b.

6. O‘zbekiston Respublikasi uzluksiz ta’lim tizimining Davlat ta’lim standartlari. *Xalq ta’limi jurnali*. – 2013. – №4. – B. 4–32.

7. Haydarova U. (2022). “The Translations and Meanings of Metaphors Used in ‘Hojoki’.” *Oriental Renaissance: Innovative, Educational, Natural and Social Sciences*, 2 (Special Issue 22), 54–57.

8. Tursunova N.I. (2017). “The Symbol of Mirror and Its Main Poetic Functions in Fairy Tales.” *ANGLISTICUM. Journal of the Association-Institute for English Language and American Studies*, 6(2), 7–11.

9. Tursunova N.I. “Omon Muxtor ijodi va uning o‘zbek adabiyotiga qo‘shgan hiss asi.”

10. Igamberdieva S. (2022). “Principles for Teaching Foreign Languages.” In *International Scientific Conference ‘Innovative Trends in Science, Practice and Education’* (Vol. 1, No. 2, pp. 212–216).

11. Kholmatov S., & Yuldosheva M. (2022). “Differences Between Pun and Double Entendre.” *Involta Scientific Journal*, 1(7), 174–177.